



OLTOY TILLARDA “QA” O‘ZAGINING LEKSIK - SEMANTIK TARAQQIYOTI

*Usmonov Qarshi Bahriddinovich, SamDU
Sariyev Sherzod Norqo‘ziyevich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi.
Samarqand, O‘zbekiston
<https://orcid.org/0000-0002-7607-364X>
e-mail: sherzodsariyev@gmail.com*

II-qism

Dastlabki oltoy o‘zagi CV dan tashkil topgan deb taxmin qilinsa unda dastlabki affkislar morfenalar ham CVdan tashkil topgan deb katta ishonch bilan aytish mumkin so‘z tarkibining murakkablashuvi natijasida o‘zak va affiksdan tashkil topgan va CVCV ko‘rinishiga ega bo‘lgab so‘zda keyinchalik affikslarda ikkinchi undoshning birikuvi va unlining tushib qolishi bilan bog‘liq; bu birikuvda yasama shakllarni leksik tarkibining rivojlanishi ham yordam bergan bu narsani biz turli tillarda bir o‘zakli har xil ma‘noli so‘zlarni qiyoslash orqali aniqlash mumkin. O‘zak morfemaning yopiq bo‘g‘inga o‘tishi turli tillar va til gurahlarida bir xil kechmagan. Masalan, mug‘ul tillariga nisbatan u turkiy tillarda ertaroq bo‘lib, ko‘proq so‘zlarni qamrab olgan, manchjur yoki even tillariga nisbatan ko‘proq va boy. Ammo bari bir CVCV turdagi negizlarning soni hamma oltoy tillarida deyarli malum. Ikkinchi unli haqida turli qarashlar mavjud. Ba‘zi olimlar, R.M.Melloranskiy kabi uni ba‘zi turkiy so‘zlar uchun xos affiks deb hisoblaydilar, ammo boshqa olimlar, masalan, Ramsted, B.Y.Vladininov, V.Bang va boshqalar aksincha CVC turdagi negizni CVCV ga nisbatan keyinroq ikkinchi unlining tushib



qolishi natijasida hosil bo'lgan deb hisoblaydilar. V.Kotvich bu muammoning tez-tez bo'lib turadigan hodisasiga turk - mug'ul, kok - koki paralellarga e'tiborini qaratib undagi ikkinchi unlini fonetik yoki morfologik qo'shimcha deb aytadi. Ikkinch undoshning affiksial harakterini tasdiqlovchi qiyoslash uchun CVCV morfemasining CVCVga dastlabki yoki takrorlanishi munosabati ahamiyatga ega emas chunki u ikkinchi undoshning kelib chiqishi bilan bog'liq emas. Boshqacha qilib aytganda qapa xuddi qap fe'lidek o'zining negizida qa o'zak va -r affiksiga egadir, buning ustiga qara fe'lida bitta affiks -p (a) bundan - (o) unli elementi yoki ikkita affiks -p + -a ga ega. Ikkinchi unli to'g'risidagi har xil tushunmovchiliklarni yechish uchun bizning mavzumiz uchun asos tushunchasini kiritish kerak, masalan: qapa va qar fe'llari hamda qap ismi bitta -qar bazasiga ega. Turkiy so'zlarning qol, qat, qar, qap bazalari bilan solishtirishi natijalarini ko'rib chiqayotganimizda shuni ta'kidlash kerakki bu so'zlar o'zining mustaqilligiga ega bo'lsa ham bu mustaqillik tuvushlarining ko'rinishida kategorial va leksik ma'nosida ko'rinish turadi semantikaning umumiyliigi ko'pchilikning jamlash holatining bu so'zlarga umumiy bo'lgan qa o'zak elementiga bog'lash lozim. Ikkinchi undosh tovushlar shunday qilib affiks yoki formativdir, ularning semantikasining xuddi hind - ovropa determinantlari singari "vaqtning uzoqligi" tufayli deyarli aniqlash mumkin emas.

Tarixan bu formativlar hozirgi so'zlovchi kotegoreallar va ba'zi so'z o'zgartuvchi kategoriallar ga yaqin turadi ular so'z yasovchilarda taraqqiy etgan. Hozirgi so'z yasovchi yoki so'z o'zgartiruvchi kategoriya affikslarining qadimgi formativlardan yuzaga kelishi balki ularning qandaydir so'z guruhlarning alohida ko'rsatgichining ajralishi va paradigmaning hosil bo'lishiga olib keldi. Shu narsa aniqki, bu yangi ko'rsatgichlar dastlabkilar bilan ba'zi semantik umumiylikni saqlagan, biz buni ko'plik dominat ma'nolarida ko'rishimiz mumkin. Ammo bu dastlabki formativlar bunday mavhum ma'noga ega bo'lganligi shubhalidir. Til taraqqiyoti doim aniqlakdan mavhumlikka boradi. Qadimgi til kategoriyalar



nisbatan aniq bo'lgan, ya'ni grammatik vositalar ma'lum so'zlar doirasi bilan chegaralangan bo'lib, bu so'zlarning leksik ma'nosi aniq edi.

Ayni shu bosqichda morfologik elementlarning mustaqil ma'noli so'zlar bilan aloqasi bo'lgan. Ammo keyinchalik guruh ko'rsatgichidagi grammatik vosita kenja sinf bo'lib, u moddiy leksik spetsifikasini (o'ziga xos xususiyatini) yo'qotib, mavhum grammatik harakterga ega bo'lib boradi. Qadimgi formativlar semantikasi bo'yicha tadqiqotlarning borish imkoniyatlarini chegaralanganiga qaramasdan bunday taraqqiyotlar olib borilishi kerak chunki bularsiz CVC turdagi o'zak morfemadagi ikkinchi undoshning affiks ekanligini isbotlash juda qiyin bo'ladi. Endi esa qa o'zagi bo'yich mug'ul tilidagi materialga murojaat qilamiz. Buryat va hozirgi mug'ul tilida xada fe'li 1) "mixlamoq, mixlab qo'ymoq, qoqmoq". 2) "tikmoq" va undan leksiklangan havzativ - buryat xadaa 1) "ilintirmoq" 2) ko'chma ma'noda "yaxshi esda saqlamoq" Qad. Turk qadil "pishitilgan", "qadis -pishitishga yordam bermoq" (M.K. 11 134.93) qad – "ko'yilamoq" (nari-beri tikmoq) negizi yuqoridagi 2 soni bo'yicha oson tiklanadi. Bizlar t bad, p va b/v i omorgan tovushlardan iborat bazalarning qiyoslaganimizda qadimgi holati uchun (ja) jaraqsiz // jarangli, chiv - ko'rla / kuchsiz qarama-qarshiliklarning yo'qligini ta'kidlash mumkin: "t va d < t qa- keltirib chiqarmoq, qandaydir manemuaga, predmetlarning ko'pligiga erishish" o'zagining taxmin qilinayotgan semantikasida kelib chiqqan holda, buryat xodagal 1) "saqlamoq, asramoq" 2) "yashirmoq" va bundan hosil bo'lgan buryat yasama xadxad "qo'rqt" g'amlab qo'yilgan narsa fe'li hosil bo'ladi. Qiyos qad.mug'ul (kvadrat xad) qada qala – "saqlamoq".

Bu so'zlar uyasiga xadim fe'lini ham katta ishonch bilan qo'shish mumkin, buryat: 1) "bog'lamoq" (jilolvni shotiga yoki otning orqa oyog'iga bog'lash) 2) ko'chma ma'noda "yaxshi esda saqlamoq" mug'ul "tegmoq" intilmoq tikilib qolmoq tumshug'ini uzangiga tiqdi (ot haqida).



Buryat va mo'g'ul tillarida bu fe'ning semantikasida ba'zi farqlarga qaramasdan ularni xada "predmetlarning birlashuviga, majmuiga erishish" fe'li bilan bog'liqligi shubhasiz ko'rinib turadi. Bu yerda faqat bu fe'ning morfologik taraqqiyoti aniq emas, chunki xadli fe'lining dastlabki shakli xaduqa [yoki xadalu] shakliga olib borib taqash kerak, ammo bu affiks mug'ul tillar tarixida qayd qilinmagan. Ammo bunga qaramasdan, so'z o'zagining 3-ko'psonantli affiks element ekanligiga shubhasiz qarashimiz kerak. Qa o'zagi va 1 deteminatibilan hosil bo'lgan yasama so'zlar mug'ul tillarida quyidagicha ifodalanadi: mug'ul xala 1) juda yaqiniga bormoq, yaqinlashmoq va undan ko'chma ma'nodagi so'zlar 2) jur'at qilmoq botinmoq; xalqa "yaqinlashtirmoq, o'ziga yaqinlashtirmoq" va xalda fe'llari: 1) yuqtirmoq 2) yopishmoq 3) ko'chma ma'noda juda yaqin yaqinlashmoq 4) "suyiqast qilmoq" yuqoridagilar xala fe'li va -ga -da affikslari yordamida yasalgan.

Xalaga fe'lida affiksning qo'shilishidan semantikada o'zgarish bo'ldi, qiyos: "yaqinlashmoq" yoniga yo'latmoq, bunda -qa affiksi permissiv kauzativ ma'noda ishlatilib bunda permissivlik belgilari ko'proq aks etgan: xalda fe'lining semantikasida hech qanday o'zgarishlar sodir bo'lmagan faqatgina ikki to'g'ri ma'nodan "juda yaqin kelmoq va yozishmoq yuqmoq" so'zlarida quyidagi ko'chma ma'nolar rivojlandi: "yuqtirmoq" < "yozishmoq va suyiqast qilmoq" < "juda yaxshi kelmoq" Bu fe'llarning hammasi ulardan hosil bo'lgan yasama so'zlar, masalan xaldau "yopishqoqlik", "yuqimlilik", xalashguy "daxliz", xaltvar "inoreksiya" kabilar va oxirgi so'zdan hosil bo'lgan so'zlar bir - biri o'rtasida va ikkinchi kansonanti -d -dan: iborat so'zlar bilan birga semantikaning umumiyliigi aniqlandi.

Semantikadagi uyalar orasidagi birinchi determinant bo'lishi (so'zdagi ikkinchi elementi) -e va -d laming farqlari quyidagilar: birinchi so'z uyasi semantikada (-e determinanti bilan) subektiv bir narsaga harakati tufayli predmetlarning majmuiga birlashuviga erishiladi. (Qiyos: "juda yaqin kelmoq")



ikkinchi uya semantikada esa nimanidir subekt tomon harakatining birlashuviga erishiladi.

Qa o‘zagidagi ikkinchi undosh -r- undoshi bilan hosil bo‘lgan so‘zlar orasida eng birinchida qara so‘zini alohida ta’kidlash kerak, chunki unga hech qanday qo‘shimchalar, bu so‘z juda qisqa talaffuz qilinadi. Bu so‘zning semantikasi va sintaksisining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha: biror bir so‘zdan keyin kelsa, noaniq umumlashmani jamlash yoki ko‘plik ma’nosini beradi: “ro‘zg‘orga qarab turgin” (uyga va bosh) dansa “ro‘yxatlarga kiritmoq” mug‘ul tillarida xara so‘zining jamlash ma’nosida postpozitsion qo‘llanishi qadimgi til xususiyatidir. Masalan: qadimgi turk yodgorliklarida jamlovchi-umumlashtiruvchi semantikasi mavhum bo‘lib, bular dastlab postpozitsiya ishlatilardi, hozirgi tillar uchun bu so‘zlarga prepzitsiya xosdir. Bunday sintaksisni ishlatilishi bu so‘zlarning fe‘ldan yasalganligi haqida ma’lumot beradi.

Qar ba’zasidagi fe’lli so‘zlar hozirgi mug‘ul tillarida faqat bir ikkita konsanant determinantlar bilan hosil bo‘lgan ko‘rinishlarga ega, bunda mahsuldor affikslarning, masalan, fe’l nisbatlariga oidlari birlashishi imkoniyati hisobga olinmaydi. Bu fe’llarning ba’zilarida jamlash va ko‘plik ma’nosi juda aniq ko‘ringan: bury at xarxay (xar - baza - x ikkinchi determinant) (-u -ikkinchi determinant) “ustma-ust qalashmoq” qiyos: bug.xarxagar – “xayratli sifati va xarduxa barayxa zoori “ko‘chaydigan va ko‘chmas mulk” mug‘ul birikmasi: mug‘ul: xarma “to‘plamoq” (pichan va xashakni xaskash bilan to‘plamoq) “terib olmoq, yig‘moq” qiyos: qadimgi mug‘ulm qara kechil “qora qaptara (quzg‘unga) aylanib tashqarida nima bo‘lsa o‘shani (in bilan) birga teraman. (S.S.K.)

Fe’llarning ba’zi qismlardagi jamlash semantikasi keyingi taraqqiyot bosqichini ham kechirdi, masalan, mug‘ul xarga fe’lidan xargalda, xargasta yasama fe’llar yasalgan: uchala so‘z “to‘qnashmoq”, “urushmoq” ma’nolarini beradi. Xarga fe’lining ma’nosidan ikkinchi determinanti -sh (birinchisi -r) bo‘lgan fe’lni noraliq



deyishimiz mumkin mug‘ul xarshi “urulmoq” bir - birga urulmoq (tosh yoki chinnilarning urilishi). Xarshi fe’li semantikasining keying taraqqiyoti natijasida “nomunmosib qarshi chiqmoq”, “qarshi bo‘lmoq” (inkor qiladigan, nomuvofiq. Z.K.) ma’nosi kelib chiqadi, buni mug‘ulcha - ruscha lug‘atining muallifi omonim fe’lining ma’nosi deb hisoblaydi. Xarshi fe’li anglatgan oxirgi ma’no hamda sifati quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) “begona, dushmanlik ruhidagi” 2) “zid, qarama – qarshi” bular turkiy hosilalarga o‘xshashdir: “dushmanlarga” va shu kabilar (D.S.). Mug‘ul so‘zlar qatoridan xav bazasini alohida ta’kidlash lozim bu dastlab mug‘ul xav – “qavimoq”, “xoxlamoq” qiyos yuqoridagi turkiy so‘zlarni qadimgi bazasi bilan. Xavsa – “nog‘ora qoqmoq” fe’li majmuada, erishish semantikasi dan uzoqday tuyiladi, ammo undan yasalgan fe’l bunday semantikaga egadir: xavsra 1) “birlashtirmoq, qo‘shmoq” 2) “birga qo‘shmoq” 3) “yoni bilan termoq” (birini ikkinchisi bilan 4) “dushman oyoqlari yonboshiga oyoqning ichki tomoni bilan ichish” 5) “esmoq” (sovuq shamol esmoqda). Bu fe’llarda 1,2,3 va 4 ma’nolar dastlabki semantikaning davrlarini aniq ko‘rsatadi, u xavsa fe’lida nog‘ora qoqmoq” ma’nosida kelgan. Xavsra fe’lidagi “yonma - yon termoq” ma’nosi birlashtirmoq ma’nolarining bir variantidir, bu narsa uni xav bazasiga, ya’ni qa o‘zagiga olib boradi. Uchinchi undoshi - r dan iborat fe’l xavira 1) bir narsani boshqa narsaga ishqalamoq, ishqalanishni keltirmoq; 2) “qayramoq” (pichoqni) 3) “g‘ichirlatmoq” (tishlarni), ya’ni yonma -yon qo‘ymoq taxlamoq. Masalan: xavsa - xavsra (4-ma’nosi) fe’llaridagidek uchish bilan emas balki predmetning predmetga ishqalanishi natijasida. Chamasi, xuddi shu uyaga xavirga “qovurg‘a” so‘zini ham (uyaga) kiritish kerak.

Ammo muallifda “qovurg‘a” va “yonma - yon terish” yoki “ishqalanish” ma’nolari o‘rtasidagi aloqa tushunarli bo‘lmasa ham, bu aloqaning borligini “qovurg‘a” ma’nosidagi boshqa xavis(an) so‘zi tasdiqlaydi. Bu so‘z xavs bazasidagi so‘zlar uyasiga kiradi, bu so‘zlar uyasi esa xavs bazasiga o‘xshashdir. (balki bu yerda xr: siz muvofiqligi mavjuddir). Bu yerda turkiycha mas tnyr habur ga



“qovurg‘a” so‘zi mug‘ul materialidan kelib chiqqanligi uchun uni mug‘ul tilidan olingan o‘zlashtirma deb hisoblash o‘rinlidir. Mug‘ul tillari uchun -rga affiksi qaytadan parchlanishining natijasidir: xav+ -r; xavir + ga; xav + -rga.

Xulosaga qa o‘zagining ko‘plik va jamlash semantikasida ajralishini tung‘uz -m anchjur tillarida ba‘zi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Tovusharning talaffuzi jihatidan o‘zakka teng negiz berilga semantikasi bilan faqat manab tilida saqlangan. To‘g‘ri, buyerda ham xa- “qirg‘oqqa kelib to‘xtamoq”, “qirg‘oqqacha yetmoq” fe‘li affiksli negiz bilan almashinadi yoki to‘ldiriladi: xakavo – “qaytadan kelib to‘xtamoq”, qirg‘oqda to‘xtamoq qiyos: evenk - xak – “bog‘lab qo‘ymoq”.

Ue‘ch käl – “yaqinga kelmoq”, orak kol “bildirmasdan yaqinlashmoq” (qiyos yuqorida berilgan sirli harakatning o‘xshashligi: turkiy va boshqa qat-“aralashmoq”, “qo‘shmoq”; qirg‘izcha kat- kalbo (bu yerda ba soddalashtirilgan kauzativli affiksdir) “yaqin bormoq” bularning hammasi kal ba‘zasini tashkil etadi.

Qo‘shimchalar qo‘shilishi bilan bu baza quyidagi so‘zlarda namoyon bo‘ladi: manj. xalna - xalana - o‘ziga yaqinlashtirmoq, yaqinlashmoq, do‘stlashmoq; xalbu 1) "kiritmoq, qabul qilmoq"; 2) o‘g‘ri xonaga egalik qilmoq (bu yerda bu kauzativli formant); qiyos o‘ror. kalikun – “qayergadir yaqinlashtirmoq” manj.xalgi – “o‘ramoq, bog‘lamoq” (chamasi < xal - ,o‘rt. nap, kali – “yorishmoq, +qadimgi kauzativli di formanti) ularga semantik jihatdan evenk. kalbuldi “to‘plamoq” (bug‘ularni) va kelbe “birgalikda” so‘zlari yaqindir. Chamasi no‘g‘, kalmgda “go‘zal qiz” katta qalinga beriladigan kelin - nimaqda affiksi yordamida etimologizatsiya qilish mumkin, qiyos uli “suv, daryo”, ulimagda “qayiq” suvda suzish uchun mo‘ljallangan, shundan ruscha ul‘maga “dalblyonka”, “qayiq” so‘zi kelib chiqqan; bundan shu narsa kelib chiqadiki kalmakda - bu birgalikda yashash uchun belgilangan (mo‘ljallangan) kelinchak > chiroyli kelinchak - katta qalin evaziga olinadigan kelinchak < turmushga chiqqanligidan qat‘i nazar, umuman



chiroyli yosh ayol. Yuqoridagi manchjur va evenkey soʻzlar maʼnosidagi farqlarga qaramasdan predmetlarning jamlash yoki birgalik holati gʻoyasini koʻrish mumkin xuddi shu gʻoya napaycha xovvodo feʼlining ichki shaklida mavjud:

- 1) Suvdan yoyma tuzni olib chiqish;
- 2) Baliqni tuz bilan olib chiqish, baliqni tuz bilan tutmoq;
- 3) Bolke "bosib olingan aholini qullikka (asrlikka) olib hay dab ketmoq".

Qad bazasidagi mugʻul va turkiy soʻzlar semantikasi evenk kada – “qoqmoq”; even. Kad – “qismoq”, “siqmoq”. Nek. “toʻtamoq nan. Kada. – “qismoq, tiqmoq” (qadanoq, sanchmoq) (yerga): manj xada – “qoqmoq, mixlamoq, tiqmoq” kabi soʻzlar semantikasi bilan oʻxshashdir. Koʻplik - jamlash semantikasida evenkeycha xada “poda, gala, toʻda” va orokcha kadar // kadara “katta, yirik, ulkan” egadirlar. Qada gala “yashirmoq, saqlamoq” feʼli evekkey solon va “Oʻgʻuzxon haqida rivoyat” turkiy yodgorligida mugʻul tillaridan olingan ulashma deb hisoblash kerak, chunki uning tovush tarkibi va semantikasining mugʻul soʻzlari bilan qiyoslaganda ham hamda bu soʻzning tungʻuz - manchjur va turkiy tillarida “yakkaligi” tufayli tushintirish mumkin. Qap // qab// qav bazasi even .xav 1) “qoʻshmoq”; 2) “aralastirmoq” va xavnu – “toʻplamoq”, “yigʻmoq”, “qoʻshmoq”, “koʻpaytirmoq” ot va ravishda: shʻchkap 1) tiqilib zich 2) “yoppasiga” neg. kab - kap 1) “birga” 2) “yonma – yon” orak, non.kap “birgalikda” kabi ifodalangan.

Soʻzlarning oxirgi qatorida manj. Kab - kaba 1) “egizak”, 2) juftlik oroch qoʻshimchalar bilan: kapali va ud kabaʻy < kaba h y "ikki qismdan tashkil topgan biror bir narsa" (bir ildiz va ikki poldan iborat daraxt qoʻshogʻiz miltiq va boshqalar) kabi soʻzlar kiradi. Juftlik maʼnoisi ud.pon.ikki nishabli chayla - kava nomida ham yashiringan. Oltoy tillarining uchala guruhida ham bazasidan iborat soʻz uyalari mavjud. Bu baza tungʻuz - manchjur tillarida keng berilgan. Qoʻshimchalarsiz u evencha xat – “aralastirmoq” feʼlida mavjud: bu feʼlda hosil boʻlgan yasama soʻzlar



quyidagilar: xativ - passiv shakli, xamud - birgalik shakli, xamanikan – “galma-gal”, xamanikan “birgalikda”. Nanay va manjur tillarida qom bazasi faqat qandaydir qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida ifodalanadi. Nan.kamali 1) man qilmoq (taqiqlamoq); 2) o‘ziga qoldirmoq; 3) qismoq; 4) nafas chiqarmay turmoq. Bu so‘zlarning ma’nolar sistemasi (doirasi) "o‘zida qoldirmoq" ma’nosi atrofida rivojlanadi, unda nimadirni birlashtirmoq g‘oyasi, bu birlashuv harakat sub'ektiga o‘zida keyinchalik qoldirish bilan bog‘liq. Yuqorida berilgan qal bazasidagi tukiycha misollarni qiyoslang. Bu g‘oya doirasiga predmetlarning birlashuvi, ammo amalga oshishining alohida usullari bo‘yicha kam davo – “yelimlamoq” fe’li, qiyos - kamdon – “yelim” fe’li mavjud. Bu so‘zlar uyasiga jamlash ma’nosidagi hech qanday modifikatsiyalarsiz bir qator so‘zlar kiradi, ular quyidagilar: kamoro – “aralashtirmoq”, kamor – “birga, birgalikda”, (qiyos.ud hamul. “birga”, “jami”) kamor fe’lida yasalgan: “Kamori - govo –“birlashmoq, qo‘shilmoq” kampi – “taxlamoq, joylashtirmoq” kampikno “yig‘ilmoq” Manj: kamchi “birga qo‘shmoq, bir joyga taxlamoq, bir joyga yig‘moq” bu fe’ldan hosil bo‘lgan yasamalar kamrlin “birikma, birlashuv” kamchigan “xizmatkor”; kamni “birlashtirmoq, biriktirmoq”; xati 1) yaqinlashmoq; 2) yaramoq, yaroqli bo‘lmoq, sabr toqatli bo‘lmoq, “yelimlamoq”, “birlashtirmoq” ma’nolari birgalikda manj: tilida kamni; nan, kamnavo “yelimlamoq” fe’lini keltiradi hamda kamdon ud.kamni “yelimni” keltirishni ko‘rsatadi.

Mug‘ul tillarida qam bazasidan iborat so‘zlar juda ko‘p. Masalan: mug‘.xama 1) “sidirib olmoq”; hamma narsani ushlab olmoq; 2) “termoq”, “yig‘moq”. Xamao 1) “qarindoshlik”; 2) “munosabat dahldorlik” va bulardan bir qator yasamalar. Masalan: xama-dara 1) “tegishli bo‘lmoq” 2) “almashtirmoq”. Xamoa < xamaga yasama fe’lidan tashqari xamja “birlashtirmoq” va bur.xatra “birgalikda biror narsa qilmoq” kabi fe’llar ham mavjud. Qam bazasidagi bir qator yasama so‘zlar -t affikslar elementi yordamida yasalgan bur-xamta mug‘.xamt- “birga, birgalkda”. Bur.xamtadxa – “birlashtirmoq”, xamtal - “umumlashtirmoq”, xamtar –



“birlashmoq”. “Sirli doston” asarida bir necha bor qanta “birgalikda” so‘zi uchraydi. U qamtu (lablangan -t tishli n tish oldi t assimisi) so‘ziga borib taqaladi. Bur.mug‘. xamag – “barcha”, “hamma” juda ko‘p yasamalar qatorida ularning uchinchi undoshi t turkiy o‘zlashmadir. Ular uchuq q dan fe’ldan yasalgan sifatlarga xosdir bu yasamalarning oxirgi tili turkiy tillarda ham bazasini tashkil etadi. Hattoki qadimgi yodgorliklarda qamay ~ qamiy ~ qamy y –“hammasi, hamma” so‘zi keng uchraydi. Bizning fikrimizcha ikkinchi unlining variatsiyalari -y- affiksligini isbotlaydi. Xulosada shuni aytish kerakki berilgan qiyosliklarning to‘g‘riligi birinchi navbatda bir o‘zakli so‘zlarning semantik o‘zgarishlarida qonuniyatlarini aniqlashga bog‘liqdir. Ma’lumki bunday turdagi qonuniyatlar birinchi navbatda semantik modifikatsiya xarakterining bir xilligida ko‘rinadi. Qa o‘zagidagi modifikatsiyaning bir xilligi, bizning fikrimizcha deyarli isbotlangan. U belgilangan semantik ingredientlarning bir necha har takrorlanishida, har xil bazalarning so‘zlari orqali ko‘rilib chiqadi.

Bu birlashmoq - qo‘shlik - aralashtirish ma’nolari ham, harakatdagi birlashish bu predmetlarning ko‘pligining belgilanishi hamdir.

So‘z uyalarini qiyoslash natijalari, oltoy tillar guruhlarining har birida, alohida bazalar atrofida shakllanayotganligi tufayli quyidagi taxmin kelib chiqadi: Uchinchi undosh va undan keyindi ko‘payishni hisobga olgan holda, so‘z faqat muayyan til guruhiga tegishlidir, ya’ni yoki turkiy yoki mug‘ul va sh.k. ikkita undoshdan ham butun oltoy oilasiga tegishli bo‘lishi mukindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Баскаков Н.А. Албанский язык. М., 1958.
2. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1969. – 383 с.



3. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ариальной лингвистика. М., 1975.
4. Древнетюркский словарь / Ред. В.М. Наделяев, Д.М. Насилов, Э.Р. Тенишев, А.М. Щербак. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
5. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 3 jildlik / tarjimon S. Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1960. –1963.
6. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков. Л. 1977 (глагол). Л, 1981